Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-madaniy merosini o’rganish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan qaror loyihasi muhokamaga qo’yildi

“Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma’rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga yetkazish, shuningdek, uni o’rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo’llash chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi regulation.gov.uz normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylandi.

Ushbu qaror doirasida O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tomonidan qator allomalarimizning qo’lyozma asarlari nashr etilishi rejalashtirilgan.

Qaror loyihasining to’liq matni bilan uchun quyidagi havola orqali tanishish mumkin:https://regulation.gov.uz/uz/d/33361